



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

"Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari"

Umumiy o'rta ta'lim maktab 9-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan dars materiallari



Dars maqsadi

1. Inson huquqlari va erkinliklari tushunchasini o'quvchilarga tushuntirish.
2. Inson huquqlarining tizimi va har bir huquqning ahamiyatini ochib berish.
3. Shaxsiy huquq va erkinliklar, aybsizlik prezumpsiyasi, ta'lim olish huquqi, yashash huquqi kabi asosiy huquqlarning mazmun va muhimligini o'rganish.
4. Inson huquqlarining kafolatlanishini va ularni himoya qilishni o'rganish.
5. O'quvchilarda inson huquqlariga hurmat va mas'uliyatni shakllantirish.

Kutilayotgan natijalar

1. O'quvchilar insonning asosiy huquq va erkinliklari to'g'risidagi bilimlarni o'rganishadi.
2. O'quvchilar shaxsiy huquqlar, ta'lim olish huquqi, yashash huquqi kabi asosiy huquqlarning qimmatini va ahamiyatini bilishadi.
3. O'quvchilar inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish, ularni himoya qilish va kafolatlanishini tushunishadi.
4. Har bir huquqning hayotdagi ahamiyatini va qo'llash imkoniyatlarini to'g'ri baho berishni o'zlashtiradilar.



Dars metodlari

Suhbat

O'quvchilar bilan inson huquqlari, erkinliklari va ularning ahamiyati haqida suhbatlashish.

Keys

Inson huquqlari va erkinliklarini qo'llashga doir amaliy mashg'ulotlar.

Blis so'rov

Har bir huquqqa oid tezkor savol-javoblar.

Hikoya

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga oid hayotiy misollar.

Bilimlarni mustahkamlash

O'quvchilarning olgan bilimlarini tekshirish.

Dars qismlari: Kirish

O'qituvchi kirish so'zi

"Inson huquqlari va erkinliklari har bir fuqaro uchun muhimdir."

1

2

Savol

"Nima uchun inson huquqlari ushbu jamiyatda muhim hisoblanadi?"

3

Mavzu taqdimoti

Bugungi dars mavzusi va uning ahamiyati haqida qisqacha ma'lumot.

Inson huquqlari tushunchasi



Inson huquqlari

Har bir shaxs uchun tegishli bo'lgan va davlat tomonidan himoya qilinadigan huquqlar.

Inson erkinliklari tushunchasi

1 Ta'rif

Inson erkinliklari — bu shaxsning mustaqil harakat qilish, fikrlash, noqonuniy chegaralanmaslikka ega bo'lish huquqi.


2 Ahamiyati

Erkinliklar insonning o'zini namoyon qilishi va rivojlanishi uchun muhim.

3 Misol

So'z erkinligi, vijdon erkinligi, harakat erkinligi.

Inson huquqlari va erkinliklari tizimi



Shaxsiy huquq va erkinliklar



Ta'rif

Shaxsiy huquqlar — bu har bir insonning o'z yashashini, kamsitishlarsiz, mustaqil bo'lish va boshqalarga zarar yetkazmaslik huquqi.

Misollar

Yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi, xususiy hayot sir tutilishi huquqi.

Ahamiyati

Shaxsiy huquqlar insonning qadr-qimmatini ta'minlaydi va shaxsiy rivojlanishga imkon beradi.

Yashash huquqi



Hayot daxlsizligi

Har bir insonning hayoti qonun bilan himoyalangan.



Teng huquqlilik

Barcha insonlar yashash huquqida teng.



Davlat himoyasi

Davlat fuqarolarning hayotini himoya qilish majburiyatiga ega.

Ta'lim olish huquqi



Universal huquq

Har bir inson ta'lim olish huquqiga ega.



Global kafolat

Bu huquq butun dunyo bo'yicha kafolatlanadi.




Rivojlanish asosi

Ta'lim shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning kaliti hisoblanadi.

Aybsizlik prezumpsiyasi



Aybsizlik prezumpsiyasi – bu har
bir insonning aybsizligini
qonuniy isbotlangunga qadar
aybsiz hisoblanishidir.



Inson huquqlarining kafolatlanishi

1

Qonuniy asoslar

Konstitutsiya va qonunlar orqali kafolatlanadi.

2

Davlat organlari

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ta'minlanadi.

3

Xalqaro tashkilotlar

BMT kabi tashkilotlar tomonidan kuzatib boriladi.

Keys (Hayotiy vaziyat)

Vaziyat

Umid 16 yoshda. Oilasining moliyaviy ahvoli yomon. Ular oilasining moliyaviy ahvoli juda yomon. Uning nogiron otasi oilani boqish Umidning zimmasida ekanligini aytib, ishga kirishini va maktabga borishi shart emasligini aytdi.

Muammo

Bu holatda ta'lim olish huquqi buzilyaptimi?

Muhokama

O'quvchilar vaziyatni tahlil qilib, huquqlar va majburiyatlar haqida fikr yuritadilar.

Blits so'rov

1 Savol

Shaxsiy huquq va erkinliklar deganda nimani tushunasiz?

2 Savol

Yashash huquqi insonning qanday asosiy huquqidir?

3 Savol

Aybsizlik prezumpsiyasi deganda nimani tushunasiz?

Xulosa

1 Ahamiyat

Inson huquqlari va erkinliklari jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlaydi.

2 Himoya

Ularni himoya qilish har bir fuqaroning mas'uliyatidir.

3 Kafolat

Inson huquqlarining kafolatlanishi jamiyatda adolat va tinchlikni ta'minlaydi.